

Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatining Tutgan O'Rni

E. Ortiqov

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyat xayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ulkan ijobiy o'zgarishlarga erishildi. O'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviy dunyoqarashi, tafakkur olamini milliy asosda shakllantirish, ularga musiqiy-badiiy jihatdan tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi va bu jarayon hozirgi kunda ham izchil tarzda davom ettirilayotganligi hamda ijobiy natijalar berayotganligi diqqatga molikdir.

Ta'limni milliy asoslarda qayta tashkil qilish va rivojlantirish yo'lida qilingan ishlardan yana biri - uzlusiz ta'lim tizimining hamma bosqichlarida mavjud bo'lgan musiqa ta'limi mazmuni musiqa savodxonligiga oid ma'lumotlar hamda tushunchalar bilan hajman va mazmunan yanada boyitildi. Bu holatni ta'lim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lgan umumiyo'rta talim maktablari "musiqa madaniyati" fani uchun ishlab chiqilgan va amaliyatga tadbiq etilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi, shu asosda yaratilgan darsliklar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Natijada o'sib kelayotgan yosh avlod milliy musiqa asarlarining yaratilishi, ijrosi, targ'iboti uchun zarur bo'lgan nazariy savodxonlik malakalarini o'quvchilarga singdirish masalasi bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

Milliy musiqiy meros namunalari va ularda ilgari surilgan g'oyalar jamiyat taraqqiyotiga hamda shaxs ma'naviy kamolotida muhim o'rinn tutadi. Zero, "Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi"¹.

4) aniq va yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishlari;

5) o'yinga moyillik: eng murakkab materiallar ham o'yin orqali yengil o'zlashtiriladi. O'yin o'quvchilarning tasavvurlari, diqqati, xotirasi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini faollashtiradi.

Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy etuk kishilar bo'lib etishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. O'zbekiston Mustaqillikka erishganidan keyin barcha sohalar qatori yoshlar musiqa madaniyati, ta'lim-tarbiyasi tizimida ham katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarimizni xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarga faol muloqotda bo'lishi, ularning o'z salohiyatini dunyo miyosida namoyon etish uchun katta imkoniyat yaratmoqda.

Madaniyat, san'at, jumladan musiqa san'ati asoslari taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017-2021 – yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining negizlaridan birini tashkil qiladi¹.

¹Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent "O'zbekiston". 2000. –B. 43.

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

Ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi umumiy o'rta ta'lim maktabalarida o'quvchi-yoshlarni ta'limni ilk bosqichidan boshlab ma'nан sog'lom qilib tarbiyalash, ayniqsa ularda milliy va umumbashariy musiqa namunalarini tushunadigan, anglaydigan va qadrlaydigan inson bo'lib uyg'un kamol toptirishga alohida etibor berib kelinmoqda. Zero, musiqa madaniyati asoslarini tarbiyalash eng avvalo musiqa savodxonligini egallash, musiqaning nazariy asoslarini tushunishni rivojlantirish negizida tarkib topadi.

Shuning uchun ham musiqa madaniyati ta'limida musiqa savodxonligi faoliyatining tutadigan o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Yoshlarni milliy musiqa san'atiga qiziqtirish, musiqiy merosimiz bilan tanishtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida gi qarori muhim ahamiyat ega. Unda xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallayotganligi ta'kidlab o'tildi. O'zbek milliy maqom san'ati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: Jumladan, xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish, ta'lim muassasalariga mohir maqomchi san'atkorlarni biriktirish va shu asosda "Ustoz-shogird" maktablarini tashkil etish vazifasi topshirildi".

Xalq musiqa pedagogikasi o'zbek xalq musiqa merosi o'zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa san'at turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta'sirchanlik kasb etadi. Biroq, musiqa asarlarini tushunish, anglash, qolaversa uning tarbiyaviy imkoniyatlari musiqaning nazariy asoslari va u haqda yaratilgan ta'limot, nazariyalarga bog'liqidir. Musiqa nazariyasi yoki musiqashunoslik fani san'at asarlarining tuzilishini, mazmun-mohiyatini tahlil etsa, u musiqa san'ati namunalari bilan kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emosional ta'sirini ko'rsatib kelgan. Bizga ma'lum bo'lishicha o'zbek xalqining boy musiqa merosi xazinasini o'rganishda donishmandlar, musiqashunos olimlarning qoldirgan ilmiy merosi salmoqli o'rin tutadi.

Nazariy ta'limot va musiqa san'ati va ilmiga oid tadqiqotlardan ayrim namunalarining mazmun-mohiyatini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyoti, insonlarning madaniy-ma'rifiy olami rivojlangan sari musiqa asarlari ham davr ruhi va talablariga mos tarzda takomillashib kelgan. Musiqa asarlarning nazariy asoslari, mazmun-mohiyati o'quvchi-yoshlarning ruhiy, aqliy, badiiy tafakkuri, va dunyoqarashiga mos soddaligi, kuylashga oson va qulayligi, bolalar diqqatini o'ziga tez jalb qila olish xususiyatlari bilan ulardan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda keng foydalanish uchun qulaylik tug'diradi.

Shuning uchun ham umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchi-yoshlarda musiqa savodxonligiga qiziqish va uni o'rganishga ishtiyoq o'yg'otish, kuylash vap tinglash jarayonida asarlarning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok etish, tasavvur etish bilan ularga o'z munosabatini bildira olish, ya'ni tavsif berishga o'rgatib borish, shu asosda bolalarda musiqa san'atining asta-sekinlik bilan jiddiy va murakkab turlari ham ijodiy, faol munosabatni shakllantirish mumkin. Bu esa bugungi kunda musiqa ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul pedagoglar va to'garaklar rahbarlari oldidagi eng muhim va axamiyatga vazifalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqiy savodxonlikni egallashga dastlabki asoslariga zamin yaratiladi. Bu bosqich ta'lim tizimining eng mas'uliyatli bo'g'ini hisoblanadi. Ayni shu bosqichda o'quvchilar musiqa san'atining nazariy asoslari, nota yozuvli tizimi, nota chiziqlarida notalarning joylashuvi, musiqa kalitlari, ijro sur'ati, pauzalar kabi

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

tushunchalar bilan yaqindan tanishib boradilar va ular haqida ilk nazariy ma'lumotlarga, bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar.

Umumta'lim maktabida musiqa ta'limi mazmunini yanada oshirish, tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda davlat ta'lim standartining ahamiyati katta. 2017 yil 6 apreldagi "Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori bilan Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti tasdiqlanib, Unda umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi - o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat, deb belgilandi¹.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari (1-4-sinflar) uchun chiqarilgan darsliklar va fan dasturiga musiqa savodxonligiga oid ko'plab ma'lumot va tushunchalar ham kiritilgan. Ta'limning ilk davrlaridan bolalarga bunday namunalarni o'rgatish, ularning qoidalarini yodlash hamda amalda ushbu tushuncha va ma'lumotlardan foydalanish asosiy maqsad qilib qo'yilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Keyingi paytlarda musiqa madaniyati darslarini tashkil etish, o'quvchilarga musiqiy savodxonlik malakalarini shakllantirish va rivojdantirish metodik masalalarga oid to'plamlar holida nashr qilish borasida ham anchagina ijobiy ishlar qilinganligi diqqatga molikdir. Bunga professor R. Qodirovning "Musiqa pedagogikasi" darsligi, D. Soipovaning "Musiqa o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasini misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Bularning barchasi, musiqa savodxonligi faoliyatini samaradorligini oshirish, musiqa savodxonligini faoliyatning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlashning pedagogik mohiyati xususida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Xalqimiz orasida qadimdan musiqa san'atini o'rganishda musiqiy savodxonlikni tarkib toptirish masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Musiqa savodi bosqichi, uning dars jarayonidagi o'rni va ahamiyati, musiqa savodxonligidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalar xususida bahs-munozarali jarayonlar bo'lib o'tgan.

Musiqa savodxonligi hozirgi kunda musiqa san'atida keng o'rin tutuvchi ko'pchilik san'at ixlosmandlari havaskor va professional ijrochilarning egallashi zarur bo'lgan tushunchalari hisoblanadi.

Buning uchun o'qituvchi qo'lini ko'ndalang holda tutib, har bir barmog'ini nota chizig'i, deb faraz qiladi. O'quvchilarga ham o'ng qo'llarini huddi shunday tutib, o'qituvchi bilan birgalikda chap qo'l ko'rsatkich barmog'ida notalar joylanishini o'rganadilar va o'qituvchi savol bergan notalarini o'zları topib ko'rsata boshlaydilar. Demak, musiqa savodxonligi faoliyati maktabdagagi eng muhim va yetakchi faoliyatlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'rganiladigan musiqiy asarlarni savodli holda o'zlashtirishlariga imkon va shart-sharoit yaratadi.

Musiqiy pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos psixologik-fiziologik, pedagogik-musiqiy xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi:

1) to'liq shakllanmaganlik, organizmining nozikligi; bir xil holatda turish, bir xil faoliyat bajarish jarayonida, ayrim o'qituvchining ohangsiz nutqi, darslarning bir qolipda o'tilishidan zerikish va tez charchab qolishlari; diqqatlarining tarqoqligi;

2) aqliy faoliyat jarayonida yo'naltirilganlik, tizimlilik malakalarining yetishmasligi, yorqin xotira;

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

Bu yoshdagi o‘quvchilarda, ular uchun qiziqarli bo‘lmagan ishdan tez charchaydi, bevosita ta’sir jozibasi bo‘lmagan materialga diqqat qilishi kiyin bo‘ladi. Bu holni hisobga olgan holda butun ta’limni birgina qiziqish asosida, yoqib qolganligi vajida-gina olib borib bo‘lmaydi. O‘quvchilar o‘qishning jiddiy iroda kuchini talab qiladigan mehnat ekanligini qanchalik tez tushunib olsalar va his etsalar, ularda diqqat- e’tiborning barqarorligi, o‘quv faoliyatida harakatlarni yo‘naltirishi hamda erkin tarzda uyushtirish qobiliyati shunchalik erta shakllanadi.

Bu yoshdagi o‘quvchiga jadal harakat faolligi xos bo‘lib, bu faollik uning o‘z xulq-atvorini yetarli darajada idora qila bilmasligi bilan qo‘silib, ko‘pincha ta’sirga beriluvchanlikni, o‘zini tuta bilmasligini keltirib chiqaradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining harakatchanligini, motorikasini to‘g‘ri shakllarda uyushtirmoq, unga maqbul keladigan yo‘nalish berish kerak.

A D A B I Y O T L A R

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbekiston milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ - 3391-sonli qarori . // Xalq so‘zi. 2017. - 18 noyabr.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning “Xalqaro maqom san’ati anjumani” ning ochilish marosimidagi nutqi”. // “Xalq so‘zi”. 2018 y. - 7 sentabr
3. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. - T., O‘zbekiston. 2016. –B.14.
4. Раджабов Т.И., Раджабов Д.И. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 331-335.
5. Rajabov T. I. THE ROLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS IN YOUTH EDUCATION IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 884-889.
6. Ибодович Р.Т. Эстетическое воспитание школьников через национальные ценности (на примере бухарского детского фольклора) //Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук. – 2020. – Т. 8. – С. 237-240.
7. Тўхтасин Р. И. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 64-71.
8. Ибодович Р.Т. ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА ЗАНЯТИЯХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ //Европейский научный журнал. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 139-141.
9. Исаев С. и соавт. Влияние применения удобрений на урожайность хлопчатника сорта Бухара-102 на засоленных хлопковых полях Узбекистана //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 258. – С. 03015.
10. Rajabov T. I. O ‘kuvchi-yoshlarga o ‘zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
11. Isaev S., Rajabov T., Dolidudko A. Influence of inorganic fertilizers on cotton crop yield in saline soils //Bulletin of Science and Practice. – 2018.

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)
<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

12. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzыki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – T. 3. – C. 47.
13. Rajabov T. I., Ibodov U. R. Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnym buxarskogo detskogo folkloru na urokax muzыki //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – C. 21-2.
14. Ражабов Т. И. Мактабда мусиқа таълимида фольклор қўшиқларининг ўрни //Тошкент давлат педагогика университети. Илмий-назарий ва методик журнал. Тошкент. – 2016. – С. 122-126.
15. Ibodovich T. R. PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM //International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI. – T. 10. – C. 708-716.
16. Rajabov T. I. Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklopnix pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov //Vestnik nauki i obrazovaniya. – C. 5-2.
17. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Volume-1| Issue-1 Available online@ <https://procedia.online/index.php/philosophy//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN>.
18. Раджабов Т.И. УЗЛУКСИЗ ТАЛИМДА ФОЛЬКЛОР КО'ШИКЛАРИНИ ЙДЖРО ЭТИШИХГ О'ЗИГА ХОС УСЛУБЛАРИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 581-585.
19. Мадимов Б.К., Раджабов Т.И. Узбекский обрядовый фольклор и его особенности //Нексус: Журнал достижений инженерной науки. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 53-56.
20. Ражабов, Тухтасин. "Madaniyat va san'at muassasalarini faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (vuxdu. uz) 8.8 (2021).
21. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 1(6), 139-145.
22. Tukhtasin Rajabov Ibodovich. PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.77 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. Str.708-716
23. Tukhtasin Ibodovich Rajabov. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Volume-1 | Issue-1 Available online @<https://procedia.online/index.php/philosophy//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X> Volume – 1 | Issue – 1 | August – 2022 Procedia
24. To'xtasin Rajabov. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 SENTYABR / 2022 YIL / 21 – SON
25. Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.
26. Rajabov, Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an

**2023: International Conference on Multidimensional Research and
Innovative Technological Analyses (SPAIN)**
<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.

27. Ражабов Т. И. ХАҚ ҚҮШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛАНТИРИШ ОМИЛИ //Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.
28. Раджабов, Тохтасин Ибодович и Нигина Одилвна Орипов. «Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методическая проблема». *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* 2.2 (2022): 409-412.
29. Раджабов Т.И. Рутамова М.Ф. (2022). Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования является актуальной педагогической проблемой. *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ*,
30. Раджабов, Тўхтасин Ибодович и Джахонгир Иҳтиёрович Раджабов. «Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема». *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* 2.1 (2022): 331-335.
31. Раджабов Т.И. УЗЛУКСИЗ ТАЛИМДА ФОЛЬКЛОР КО'ШИКЛАРИНИ ЙДЖРО ЭТИШИХГ О'ЗИГА ХОС УСЛУБЛАРИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5.
32. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati. Padagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Maxsus son Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan Buxoro – 2022. 146-149.bet. ISSN 2181-6883
33. Tukhtasin Ibodovich Rajabov The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Volume-1 | Issue-1 Available online @<https://procedia.online/index.php/philosophy//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X Volume – 1 | Issue – 1 | August – 2022 Procedia 1-8-bet>
34. Tukhtasin Ibodovich Rajabov UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. BEST PUBLICATION» *Ilm-ma'rifat markazi* © IJODKOR O'QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL MATERİALLARI TO'PLAMI. 5 SENTYABR / 2022 YIL / 21 – SON . 29-40 BET
35. Tukhtasin Ibodovich Rajabov 1-4-SINF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MUSIQAGA QIZIQISHINI TAKKOMILLSHTIRISH MAZMUNI ITALY ONLINE CONFERENOE FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference (13 th September 2022). ISSUE 11 – 589p. 485-494-BET. ISBN 978-955-3605-86-4
36. Bakhram Khudoynazarovich Madrimov,Tukhtasin Ibodovich Rajabov Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7578 <http://innosci.org/> 53 |-56-Page
37. Tukhtasin Ibodovich Rajabov, Sabina Sayfiddin qizi Safoeva 5-7-SINF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MUSIQAGA QIZIQISHINI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

2023: International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (SPAIN)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA>

38. Tukhtasin Ibodovich Rajabov, Sabina Sayfiddin qizi Safoeva MUSIQA MADANIYATI TA'LIMIDA MUSIQIY SAVODXONLIK FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI. Volume: 02 Issue: 10 | Oct-2022 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz Analytical Journal of Education and Developmen.423-432 bet.3
39. Tukhtasin Ibodovich Rajabov, Bexruz Hamidovich Boltayev Al-Forobiy Va Ibn Sino Sharq Musiqiy Ta'limotida "Iyqoot" Usullari Nazariyasi Asoslarining Zamonaviy Tasnifi International Multidisciplinary Conference "Innovative Research on Modern Scientific World" 39-43 bet